

**UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA INFORMATIKA O'QITUVCHISINING
INNOVATSION PEDAGOGIK FAOLIYATI**

Abduraxmanova Madinabonu

*Ohangaron tumani 27-umumi o'rta ta'lism maktabi
"Informatika" fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqola umumta'lism maktablarida informatika o'qituvchisining innovatsion pedagogik faoliyati haqida bo'lib u haqida umumiy tushunchalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Axborot texnologiyalari, innovatsion faoliyati, pedagogik yangilik, interaktiv metodlar, ilmiy faoliyati.

Kirish: Pedagogik faoliyat yosh avlodni hayotga, mehnatga tayyorlash uchun xalq, davlat oldida javob bera oladigan, bolalarga ta'lism –tarbiya berish ishi bilan shug'ullanadigan, bu ishga maxsus tayyorlangan shaxslarning mehnat faoliyatidir. Ta'lism jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundankunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lism jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Asosiy qism: Pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida pedagog o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta'minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi. Pedagog faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi motivlari ahamiyat kasb etadi, bu esa pedagog shaxsining kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi. Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi. O'qituvchi innovatsion faoliyatining tahlili yangilik kiritishning samarasini belgilovchi muayyan me'yordan foydalanishni talab qiladi. Bunday me'yorlarga yangilik, optimallik, yuqori natijalilik, ommaviy tajribalarda innovatsion

ijodiy qo'llash imkoniyatlari kiradi. Yangilik pedagogik yangilik me'yorli sifatida, o'zida taklif qilinadigan yangilik, yangilik darajasi mohiyatini aks ettiradi. Pedagogik olimlar yangilikni qo'llash mashhurligi darajasi va sohasiga ko'ra farqlanadigan mutloq, chegaralangan mutloq, shartli, sub`ektiv darajalarini farqlaydilar. Bunda o'qituvchining innovatsion faoliyati o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish, ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi, unda innovatsion faoliyatining samarasi pedagog shaxsiyati bilan belgilanadi. Shuni alohida qayd etib o'tish joizki, texnologik yoshdoshuv asosida pedagogik faoliyatni tashkil etish individual va ijodiy xususiyatga ega. Shu bois ta`lim va tarbiya jarayonini yo'lga qo'yishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish har bir pedagogning shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy mahorati hamda ijodkorlik layoqati darajasiga bog'liq.

Bo'lajak informatika o'qituvchisi o'sib kelayotgan avlodning umumta`lim maktablarda o'qitiladigan «Informatika va hisoblash texnikasi asoslari», «Informatika» va «Axborot texnologiyalari» fanlarining ahamiyatini, ularning mazmunini ajratish tamoyillarini, shuningdek, ularning boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushunishi zarur.Informatika fanini o'qitish quyidagi maqsadni ko'zda tutadi: - bo'lajak o'qituvchilarni informatika fanini ijodiy o'qitish va o'zlarining amaliy faoliyatlarida yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari bilan qurollantirish; - bo'lajak o'qituvchilarni informatika sohasi bo'yicha turli-tuman shakldagi sinf va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazishga tayyorlash; -bo'lajak o'qituvchilarni ta`lim sohasini axborotlashtirishning yo'llari va ulkan istiqbollari haqidagi tasavvurlarini rivojlashtirish hamda chuqurlashtirish.

Xulosa: Pedagogning innovatsion faoliyatini samarali amalga oshirish bir qator shart-sharoitlarga bog'liq. Unga pedagogning tayinli muloqoti, qarama-qarshi fikrlarga nisbatan munosabati, turli holatlarda ratsional vaziyatning tan olinishini uqtirishga tayyorligi kiradi. Buning natijasida pedagog o'z bilim va ilmiy faoliyatini ta`minlaydigan keng qamrovli mavzu (motiv) ga ega bo'ladi.Pedagog faoliyatida o'z-o'zini faollashtirish, o'z ijodkorligi, o'z-o'zini bilishi va yaratuvchiligi motivlari ahamiyat kasb etadi, bu esa pedagog shaxsining kreativligining faolligini shakllantirish imkonini beradi.Pedagogning innovatsion faoliyati - o'z ichiga yangilikni tahlil qilish va unga baho berish, kelgusidagi harakatlarning maqsadi va kontseptsiyasini shakllantirish. Ushbu rejani amalga oshirish va tahlil qilish, samaradorlikka baho berishni qamrab oladi.

Foydanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Юлдашев У.Ю., Закирова Ф.М. Методика преподавания информатики. Учебник для педагогических вузов. – Т. 2005.

2. Boltayev B. IHTA. 8-sinf. Maktab o'quvchilari uchun darslik. – T. 2002.
3. Boltayev B. IHTA. 9-sinf. Maktab o'quvchilari uchun darslik. – T. 2002.
4. Abduqodirov A., Xaitov A., Shodiyev R. Axborot texnologiyalari. Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2001 y.
5. Axmedov A. Tayloqov N. Informatika. Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2001 y. – 272 b.
6. Sattorov A. Informatika va axborot texnologiyalari. - Akademik lisey va kasb – hunar kolledjlar uchun darslik. – T.: O'zbekiston, 2002 y.